E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJODI

Tojiyev Xudoyberdi Ablakim o‘g‘li
“Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mehanizatsiyalash muhandislari inistituti” Milliy tadqitot universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, shoir, tarjimon, publitsist, jamoat arbobi Abdulla Oripov hayoti va ijodi, she’riyati, unvonlari haqida ma’lumotlar yoritilgan.
Kalit so’zlar: Shoir, tarjimon, publitsist, jamoat arbobi, Abdulla Oripov, adabiyot, san’at, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Oliy Majlisi senati, O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi, “O‘zbekiston Qahramoni”.

Abdulla Oripov - o‘zbek shoiri va jamoat arbobi. Abdulla Oripov ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin sahifalaridan birini nomoyon etadi. Uning she’rlarida insonning chuqur ruhiy dunyosi va xalq tarixi tahlil etiladi. Shoir, tarjimon, publitsist, jamoat arbobi Abdulla Oripov 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida tavallud topgan. O‘rta maktabni 1958-yili oltin medal bilan tamomlagandan keyin, hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetning jurnalistika fakultetida 1958–1963-yillarda o‘qidi, “Sharq yulduzi” jurnalida adabiy xodim, “Yosh gvardiya” va G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotlarida muharrir, “Yosh gvardiya” dramatik teatrida badiiy bo‘lim mudiri, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi, katta adabiy maslahatchi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institutida o‘rindoshlik bo‘yicha o‘qituvchi va bir qancha vazifalarida ishladi. 2009 yildan boshlab esa O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Faxriy raisi. U 1990 yilda O‘zbekiston Oliy Kengashining, 1995 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati etib saylangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senati a’zosi (2005–2010). Abdulla Oripov Kaliforniya (AQSH) fan, ta’lim, sanoat va san’at xalqaro akademiyasining a’zosi ham bo’lgan.

Dastlabki she’ri 1957 yilda, o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos voqea bo‘lgan “Mitti yulduz” nomli birinchi kitobi esa 1965 yilda nashr etildi. Shundan keyin “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1966), “Onajon” (1969), “Ruhim” (1971), “O‘zbekiston” (1972), “Hayrat” (1974), “Yurtim shamoli” (1976), kabi oltmishga yaqin to‘plamlari chop etildi. 2000–2013 yillarda “Tanlangan asarlar”ning yetti jildligi bosilib chiqdi.

Abdulla Oripovning dostonlari, she’rlari ko‘plab xorij tillariga tarjima qilindi. U buyuk italyan shoiri Dante Aligerining shoh asari “Ilohiy komediya”ning “Do‘zax” qismini to‘lig‘icha va “A’rof” qismidan to‘qqiz qo‘shiqni mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘girdi (1975,2005). Yenye Xelton, A. Pushkin, N. Nekrasov, L. Ukrainka, T. Shevchenko, R. Hamzatov, Q. Quliyev, Maxsatiy Ganjaviy, Yegishe Charens, H. Bachchan, H. Merilaas, Xalil Rizo va boshqa qardosh shoirlar she’rlarini tarjima qildi.

Shoir ijodi mustaqillik yillarida nihoyatda tuyg‘ularga boy, fayzli va sermahsul bo‘ldi. “Haj daftari” (1992) turkumiga kirgan she’rlarida shoir ma’naviyatimiz manbalarini kashf etish yo‘lidan boradi. Qur’oni Karim, Hadisi shariflardan zamonaviy ma’nolar izlaydi va topadi. U dostonnavis va dramaturg sifatda ham ma’lum va mashhurdir. Xususan, “Sohibqiron” (1996) she’riy dramasi va “Istiqlol manzaralari” (2011) dostoni shoirga katta shuhrat keltirdi.

O‘zbek xalqining milliy tiklanish, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she’riyati alohida o‘rin tutadi. Abdulla Oripov O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining matni muallifi ekani bilan ham xotiralarda saqlanib qoladi. Abdulla Oripov Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilgan kezlari O‘zbekiston eng yangi tarixi adabiy jarayoniga rahbarlik qildi. Uning she'riyati Muhammad Yusuf kabi ko‘plab shoirlar ijodining shakllanishiga ta'sir ko‘rsatgan.

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi hammualifidir. U 1994-yilda Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti bilan, Millat ma’naviyati va estetik tafakkurini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun shoir Abdulla Oripov

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

ijodkorlar orasida birinchi bo‘lib, 1998-yilda „O‘zbekiston Qahramoni“ degan yuksak unvonga sazovor bo‘ldi.

2007-yil Oripov Jahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan jahon madaniyati xazinasiga qo‘shgan hissasi uchun oltin medalni qo‘lga kiritdi.

2015-yil Italiya yulduzi xalqaro sharafli ordeni bilan taqdirlangan. Faxriy mukofot shoirga Italiya prezidenti Serj Sotarelloning taklifiga binoan topshirilgan.

O‘zbekiston xalq shoiri A. Oripov hayotdan 2016-yil 5-noyabr kuni ko‘z yumdi. Uning yoshi 75 da edi. Shoir Toshkent shahridagi Chig‘atoy qabristoniga dafn etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://arboblar.uz/uz/people/oripov-abdulla
2.https://arboblar.uz/uz/people/oripov-abdulla
3.ziyonet.uz

WORDLY
KNOWLEDGE